



CHO'LPON SHE'RIYATIDA MILLIY UYG'ONISH KONSEPSIYASI VA BADIY TAFAKKUR

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Yahyoyeva Mohinur

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqola XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakili Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodining milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Muallif Cho'lpon she'riyati va nasrini millat ruhining badiiy in'ikosi sifatida chuqur tahlil qiladi. Matnda adibning mustaqillik g'oyalari va hurriyat sog'inchi yo'lidagi mashaqqatli izlanishlari atroflicha yoritilgan. Cho'lpon asarlaridagi vatanparvarlik va erksevarlik g'oyalari bugungi kun yoshlari tarbiyasi uchun ham g'oyat dolzarb ekanligi ta'kidlanadi. Maqolada shoirning tildan foydalanish mahorati va estetik qarashlari zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan baholangan.*

Mazkur maqolada Cho'lpon she'riy merosi doirasida milliy uyg'onish konsepsiyasining badiiy talqini hamda shoir poetik mahorati tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi XX asr boshlarida yuzaga kelgan Jadidchilik harakati bilan uzviy bog'liq bo'lgan adabiy jarayonlarni qayta baholash, shuningdek, Cho'lpon lirikasida aks etgan millat, erkinlik va ma'naviy yangilanish g'oyalarining zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur o'rganish zarurati bilan belgilanadi.

Maqolaning maqsadi — Cho'lpon she'riyatida milliy uyg'onish g'oyalarining poetik ifoda shakllarini aniqlash, shuningdek, uning badiiy tafakkuridagi bosqichma-bosqich o'zgarishlarni ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Kalit so'zlar: *Cho'lpon, milliy uyg'onish, jadidchilik, poetika, lirika, badiiy tafakkur, modernizm, erkinlik*

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida shunday siymolar borki, ularning nomi nafaqat ijodkor, balki millatning vijdoni va ozodlik timsoli sifatida xalq



xotirasiga muhrlangan. Ana shunday ulug' siymolardan biri—Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpondir. Uning ijodi xalqimizning eng og'ir va murakkab davrida —chorizm mustamlakasi va sho'ro tuzumi tazyiqi ostida shakllandi. Cho'lpon o'z asarlari bilan millatni g'aflat uyqusidan uyg'otishga, o'zlikni anglashga va hurlik sari intilishga chorladi. Uning "o'lmas ijodi" degan ibora shunchaki balandparvoz gap emas, balki vaqt sinovlaridan o'tgan haqiqatdir. Abdulhamid Cho'lpon juda yoshligidan adabiyotga qiziqqa boshlagan. U o'qigan kitoblar, zamonasining ma'rifatparvar ziyolilari bilan tanishuvlari uning dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o'ynagan. Cho'lpon dastlab she'rlar yozish orqali ijodga kirib kelgan.

Cho'lponning she'riy asarlari „O'zbek yosh shoirlari“, „Uyg'onish“ (1922), „Buloqlar“ (1923), „Tong sirlari“ (1926) va „Soz“ (1935) to'plamlarida, shuningdek, turli gazeta va jurnallarda e'lon qilingan. Ular g'oyaviy-tematik yo'nalishiga ko'ra 2 guruhga ajraladi: sof lirika va ijtimoiy-siyosiy lirika. Ishqiy kechinma va tabiat manzaralari tasvirlangan she'rlarida Cho'lpon jahon lirik she'riyatining mumtoz vakillari darajasiga ko'tarilgan. She'rlari lirik qahramonning boy va go'zal ruhiy olamini, tabiat manzarasini, tabiatda kechayotgan jarayonlarni katta mahorat bilan aks ettirgan. „Go'zal“, „Sezgi“, „Sirlardan“, „Men shoirmi?“ singari she'rlari bilan barmoq vazniga asoslangan yangi o'zbek she'riyatini yuksak taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. Barmoq vazni Cho'lpon va Fitratning ijodiy izlanishlari bilan 20-yillarning boshlaridayoq yangi o'zbek she'riyatining asosiy vazniga aylandi.

Tarixiy davr va tarixiy sharoit Cho'lpondan muhabbat va tabiat lirikasidan ko'ra shu davrdagi o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvolini yaxshilashga qaratilgan asarlar yozishni taqozo etdi.¹Vatan va millat manfaati bilan yashagan shoir davrning shu talabi bilan bolsheviklar olib borgan siyosatning mustamlakachilik mohiyatini fosh etishga, xalqni zulm va zo'ravonlikka qarshi hurriyat uchun kurashga da'vat etishga qaratilgan she'rlar yozdi („Buzilgan o'lkaga“,

¹ Cho'lponning badiiy olami, T., 1993; Sharafiddinov O., Cho'lponni anglash, T., 1994;



„Xalq“, „Vijdon erki“, „Kishan“ va boshqalar). Cho‘lpon bu she‘rlari bilan adabiyotning kurash quroliga aylanishi mumkinligini isbotlab berdi. Shoirning yurak qoni bilan yozilgan bu she‘rlari vatandoshlarida o‘zbek diyoriga otashin muhabbat, mustamlakachilarga nafrat, erk va hurriyat g‘oyalariga sadoqat tuyg‘ularini tarbiyaladi.

Cho‘lpon she‘riyatining muhim xususiyatlaridan biri — unda lirik “men” obrazi orqali kollektiv ong ifodalanishidir. Shoirning lirik qahramoni faqat shaxsiy kechinmalarni ifodalovchi subyekt emas, balki butun millat dardini o‘zida mujassamlashtirgan badiiy timsoldir.

Bu jihat ayniqsa shoirning iztirob, qayg‘u va umidsizlik ohangidagi she‘rlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Lirik qahramonning ichki kechinmalari orqali ijtimoiy muhitning og‘irligi, millatning ma‘naviy tanazzuli ochib beriladi. Natijada individual hissiyotlar umumxalq fojeasining badiiy ifodasiga aylanadi.

Shu bilan birga, Cho‘lpon lirikasida umid va ishonch motivlari ham muhim o‘rin tutadi. Lirik qahramon ko‘pincha iztirob bilan bir qatorda kelajak sari ishonchni ham ifodalaydi. Bu esa shoir poetikasida pessimizm va optimizmning dialektik uyg‘unligini yuzaga keltiradi. Ushbu "Ko'ngil" she'ridan misol:

Tiriksan, o‘l magansan,
Sen-da odam, sen-da insonsen,
Kishan kiyma, Bo‘yin egma,
Ki, sen ham hur tug‘ilg‘ansan!

She'ning g'oyaviy mazmunida inson erki, ruhiy qullik va unga qarshi isyon yotadi. Shoir ko'ngilga murojaat qilib, aslida butun xalqning ruhiy holatini ochib beradi. "Sen-da odam, sen-da insonsen", "hur tug‘ilg‘ansan!" jumalari orqali ham xalqni uyg'onishga da'vat etgan.

Cho‘lpon she‘riyati o‘zbek adabiyotida milliy uyg‘onish g‘oyalarining eng yuksak badiiy ifodalaridan biridir. Shoir ijodida millat, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar chuqur poetik tahlil qilinadi. Uning badiiy tafakkuri evolyutsiyasi esa o‘zbek she‘riyatining modern bosqichga o‘tish jarayonini aks ettiradi. Cho‘lpon nafaqat shoir, balki milliy ong uyg‘otuvchisi sifatida ham



tarixda muhim o‘rin egallaydi. Uning she‘riy merosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cho‘lpon. Asarlar to‘plami (3 jildlik). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1991–1994.
2. Naim Karimov. Cho‘lpon. – Toshkent: Fan, 2003.
3. Naim Karimov. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
4. <https://tafakkur.net/kongil/abdulhamid-cholpon.uz>
5. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademi-nashr, 2010.
6. O‘zbek adabiyoti tarixi. (Darslik) – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashri, 2016.
7. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi. Jadid adabiyoti va milliy uyg‘onish masalalari. – Toshkent: Fan, 2005.
8. Hamidulla Boltaboyev. Jadidchilik va adabiy jarayon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.